

## ZAMONAVIY HIKOYALARDA SHARPA OBRAZI TALQINI

**Bo‘riboyeva Muqaddas Zayniddinovna**

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat  
O‘zbek tili va adabiyoti Universiteti  
magistranti*

*Tel raqami: +998882520903*

**Annotatsiya:** Maqolada bugungi o‘zbek adabiyotimiz vakillari Xurshid Do‘stmuhammad va Nazar Eshonqul hikoyalari Lotin Amerikasi adabiyotining yirik vakili, fusunkor realizm namoyandasi Xulio Kortasar ijodi qiyosiy o‘rganiladi. Ijodiy o‘ziga xoslik va adabiy ta’sir masalalari haqida mulohaza yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** ruhiyat, noan’anaviylik, modernizm, ramz, metafora, qahramon, roviy, detal, mistik obraz.

Adabiyot insonning qalbini, ruhiyatini va hayotni tasvirlovchi san’at asari sifatida doimiy evriliblarni boshidan kechiradi. Bu o‘zgarishlarga millatlararo adabiy aloqlar, yangilanib borayotgan g‘oyalar, ijtimoiy-siyosiy holat turtki bo‘lsa, ba’zida esa yuqoridagilardan ta’sirlangan holatda turlicha tuslanayotgan inson “men”i ham sabab bo‘ladi. Ta’kidlab o‘tishimiz kerakki, bu evriliblarga yozuvchining shaxsiyati, ma’naviyati va ruhiyati qo‘shilganda yangi va o‘z o‘quvchisining muhabbatini qozona oladigan asar paydo bo‘ladi.

Hozirgi o‘zbek adabiyoti, jumladan, hikoyachiligidan ham xuddi shu evrilib bosqichida deya olamiz. Hozirgi adabiy jarayonda birgina Xurshid Do‘stmuhammad va Nazar Eshonqul hikoyalari e’tibor beradigan bo‘lsak, ularning an’anaviy va noan’anaviy uslubdagi hikoyalarni yaratayotganining guvohi bo‘lamiz

Bu ikki yozuvchi jahon adabiyotidagi asarlarga qiziqish bilan bir qatorda ulardagi biz avval adabiyotimizda uchratmagan noanan’aviy obraz, syujet va detallarni o‘z hikoyalarda milliy mentalitet va yillar davomida bizning xalqga hamroh bo‘lib kelayotgan E’tiqod aqidalari bilan uyg‘unlikda tasvirlashga harakat qilishmoqda. Ijodkor jahon adabiyotidan ta’sirlanib asar yozar ekan, albatta, o‘sha adabiyotda uchragan badiiy detal, syujet, badiiy obraz va g‘oyani ham o‘zlashtiradi. Bunga F. Kafka “Jarayon” romanidagi K. obrazi va N. Eshonqulning “Go‘ro‘gli yoxud hayot suvi” dagi N. obrazini keltirishimiz mumkin. Lekin biz e’tiborimizni o‘zbek va jahon adabiyotidagi quyida tanlangan hikoyalardagi “sharpa” obrazining qiyosiy tahliliga qaratamiz.

Xulio Kortasarning “Zabt etilgan uy” hikoyasining fabulasi quyidagicha: ikki aka-singil roviy va singlisi Iren yoshlari qirqqa yaqinlashib qolganiga qaramay oila qurishni o‘ylashmaydi ham, ajdodlaridan qolgan katta uyda yashaydi. Kunlarning birida oshxona va kutubxona taragdagagi katta eshikli uyning bir qismida stullar qulaydi va qandaydir pichirlashlar eshitiladi. Ular bu nima ekanligiga qiziqmaydi ham, unga qarshi kurashmaydi ham, uyning o‘sha tomonini qulflab yashashda

davom etadi, keyinchalik o‘sha sirli sharpalar uyning bular yashayotgan tarafiga ham o‘tishadi. Aka-singil qo‘rqqancha uyni qulflab hech nimasiz tark etishadi. Yozuvchi (Xulio Kortasar)ning quyidagi fikrlariga asoslanib: “*Men uchun adabiyot – ma’lum shartlarga bo‘ysundirilgan, voqelikni ramziy qabul qilishga moslashgan, ishonch, halollik va shavqdan iborat katta o‘yin.*” [Eshonqul N. 3:367] Hikoyada tasvirlangan sharpa obrazi tom ma’noda metafora asosiga qurilgan deya olamiz. Xo‘sh unda bu obraz nimaning yoki kimlarning obrazi? Kortasarning tarjimayi holiga e’tibor beradigan bo‘lsak, u yashagan davrda uning yurti Argentinada siyosiy vaziyat anchagina jiddiy edi va shu sabab u yurtidan umrining oxirigacha uzoqda yashagan. Hikoyadagi uy – uning yurti, sharpalar esa hokimiyat boshida turgan harbiy hukumat desak adashmaymiz. Endi hikoya kontekstidan olingan ayrim parchalar orqali yuqorida fikrimizni dalillashga harakat qilamiz: “*Bizga uy juda yoqardi, chunki u eski va keng bo‘lishidan tashqari (o‘sha paytlar eski uylarining qurilish materiallari foydali kimoshdi savdosiga qo‘yilar edi), buvilar va buvalarimiz, ota-bobomiz, ota-onalarimiz va hammamizning bolalik xotiralarimiz shu uy bilan bog‘liq edi.*” [Kortasar X. 2:1] (tarjima muallifga tegishli – M.B.) Vatan ham xuddi mana shu uydek bizga qadrli, ajdodlar yodi va xotirasini saqlaydi. Ammo uyda paydo bo‘lgan sharpalar sabab uyning bir qismi roviy tomonidan qulflanadi. Ular uyning narigi qismida o‘zlarining ko‘plab shaxsiy buyumlarini qoldirishadi, ammo qaytib kirib olishga jur’at eta olishmaydi.

“*Birinchi kunlar og‘riqli bo‘ldi, chunki ikkalamiz ham uyning istilo qilingan qismida juda ko‘p narsalarni qoldirgan edik... Bu bir necha marta sodir bo‘ldi (lekin birinchi kunlarda) biz tortma yoki shkafni yopamiz va bir-birimizga afsus bilan qaraymiz. "Bu erda emas."*” [Kortasar X. 2:2]

Biz vatanni boy berar ekanmiz o‘zimizga eng qadrli narsalarni ham yo‘qota boshlaymiz. Avlodlar esa ajdoddlardan meros ko‘plab moddiy va ma’naviy boyliklardan ayrilishadi. Hikoya so‘ngida *Biz ketishdan oldin o‘zimda qo‘rquvni his qildim; Old eshikni mahkam yopdim va kalitni kanalizatsiyaga uloqtirdim. Qandaydir bir bechora shayton uygaga kirib, talon-taroj qilishga qaror qilsa, bilsinki, bu uy allaqachon zabit etilgan.*” (tarjima muallifga tegishli – M.B.) [Kortasar X. 2:3] Tarjimadan ko‘rinyaptiki, qahramonlar o‘sha siyosiy muhit davrida Argentinani tark etgan ko‘plab insonlar singari uyni tark etishdi va shayton ham uyni istilo qilgan “sharpa” oldida bechorahol.

Sharpa obrazini o‘zbek hikoyachiligidagi ham uchratishimiz mumkin. Jumladan, Xurshid Do‘stmuhammadning “Shabada” hikoyasida. Ushbu hikoya qahramoni Komron onasini norozi qilib, mirsaid tog‘asining “*Bir oilaning buzilishi arshni larzaga keltiradi... Arshni larzaga soladi – deyapman, tushunasamni o‘zi, osmonni, ko‘kni ostin-ustun qiladi! Shuni bilib qo‘y, bola!..*” [Do‘stmuhammad X. 1] deb

ogohlantirishiga qaramay ayoli va farzandlarini tashlab Nozik ismli qiz bilan turmush quradi. Onasi vafot etgach Nozik hamda ukasi Kamolning oilasi bilan yangi, katta va hashamatli uyg'a ko'chib o'tishadi. Hikoyadagi kulminatsiya va tugun aynan mana shu voqeadan keyin boshlanadi. Boshida unchalik e'tibor berilmagan “Jim-jit uyda eshikning qirs etib yopilishi” bilan uyda sirli voqealar sodir bo'la boshladi.

- *Nima bo'ldi, Nozik? Ayting, nima bo'ldi axir?!* – *Qo'rqb ketgan Komronning betiga suv sepadigan kimsa yo'q edi.*
- *Nariyoqqa, – dedi Nozik qo'li bilan hovli tomon ko'rsatib, – nariyoqqa o'tib ketdi...*
- *Kim? Kim o'tib ketdi?* – *Sapchib qad rostladi Komron. Hovliqib hovli tomonga yugurdi. – Ko'rdingmi? Senga tegdimi?!* *Qanaqa?..*
- *Qop-qora... sharpa... Baland... Betini ko'rmadim...* [Do'stmuhammad X. 1]

Hikoyada sharpa boshida Nozikoyni, keyinchalik qaynakasining yangi xotiniga jon-jon deb qaynona lavozimini egallagan Musharrafga ko'rindi. Hikoya oxirrog'ida esa o'sha hashamatli uyni yoqib yubordi. Bu sharpa nima edi degan savolga esa Mirsaid tog'aning javobini keltiramiz: “*Guldek oilaning buzilishi arshni larzaga keltirishini aytgandim. Tushunmadi, tushunishni ham istamadi. Aytib qo'y, chiroqli uyidagi mashmashalarning bari o'sha men aytgan larzaning shabadasi, xolos... Uqdingmi, shabadasi...*” [Do'stmuhammad X. 1]

Parchalardan shunday xulosa chiqaramizki, Xurshid Do'stmuhammadning hikoyasidagi sharpa obraq mistik ahamiyat kasb etish bilan birgalikda Oliy haqiqatni tan olmay, kundan kunga unutib borayotgan avlodga bir eslatmadir.

Keyingi o'mida yuqoridagi ikki hikoyadan tasvirlash va ramzlarining serobliligi bilan sezilarli farq qiluvchi Nazar Eshonqulning “Sharpa” nomli hikoyasi turadi. Bu hikoyada sharpa qanday va qachon paydo bo'lgani ochiqlanmagan: “*Dastlab mena shunday tuyulyapti deb o'ylading. Ammo xuddi sarobday yoningda shovur va jimirlashni sezgach, uning sharpa ekaniga shubhang qolmadi. Yolg'iz qolding deguncha u, to'g'rirog'i uning sharpasi paydo bo'lar, u qaydan keladi, qaydan paydo bo'ladi, bilmasding.*” [Eshonqul N. 4:308] Sharpa “Zabt etilgan uy” hikoyasidaadolatsiz siyosiy hokimiyat ramzi bo'lsa, “Shabada” hikoyasidagi sharpa mistik obraz bo'lib qahramonlarga qilingan gunoh (oilani buzish) uchun jazo vazifasini o'tadi. Shunday ekan Nazar Eshonqulning hikoyasida tasvirlangan sharpa qanday ma'no tashiydi? Kontekstdan anglanilgan bir qancha dalillar asosida bu asardagi sharpa obrazining talqinini berishga urinamiz. Asarni tahlil qilar ekanmiz birinchi ko'zimizga tashlanadigan jihat hikoya xronotopi, ya'ni hikoyadagi voqealar rivoji qayerda va qachon bo'layotgani ishora qilinmagan. Bundan shunday xulosa keladiki, modernizm adabiyotining muhim elementlaridan biri singari “Sharpa”dagi

voqeal-hodisalar Insonning yoki asar qahramonining ichki dunyosida, ruhiyatida bo‘lib o‘tmoxda. Azal abaddan jamiyat bilan bir qatorda insonning qalbida nafs va iymon, ezmilik va yovuzlik kurashi davom etib kelmoqda. Sharpa faqatgina roviy yolg‘iz qolganda ta’qib va hujum qiladi, roviyning do‘sti kelganda haftalab u o‘zini namoyon qilmaydi. Oynaga qarab sharpani ko‘rishni xohlasa, uni ko‘rolmaydi. Hikoyada tasvirlangan sharpani xuddi o‘sha yovuzlik deb talqin qilsak, qahramon insonning iymonli o‘zligi: “ – *Bilasanmi, - dedi u eshik oldida sening xayrlashish uchun cho‘zilgan qo‘lingni qattiq qisar ekan. – Bu uyda sening o‘zingdan boshqa hech qanday sharpa yo‘q. Sharpa sensan!*” [Eshonqul N. 4:314] Hikoya qahramoni doimiy sharpa bilan kurash olib boradi, undan o‘zini himoyalash choralarini izlaydi (*ko‘plab qushlar keyin esa katta qush suratini chizib*). Shu kabi kurashlardan birida: “*Sen o‘zingning kichkina osmoningni va quyoshingni topgan eding; xonangda osmon va quyosh paydo bo‘lishi bilan sharpa g‘oyib bo‘ldi, nihoyat sen g‘alaba qilding. Sharpa yengilgan edi.*” [Eshonqul N. 4:315] (*Qahramon o‘z xonasiga moviy osmon va quyosh rasmini chizgach, xona nurga to‘ladi.*) Ammo tezda yana paydo bo‘lib: “*Endi u tun-u-kun xonang bo‘ylab tinimsiz kezib yurar, seni g‘aflatda qoldirishi uchun payt poylardi. Sen endi mahkum eding, endi u bilan birga bo‘lishga, uning yovuz xavotiri va ta’qibi ostida bir umr yashashga mahkum etilganding. Go‘yo tarozining ikki pallasiday, sharpa va sen, bir-birlaringni goh u seni, goh sen uni ta’qib qilib, soniyalarni, lahzalarni, daqiqalarni, kunlar va oylarni quvlab yashar, sharpa senga berilgan umr tugaguncha, yo sen sharpani yo sharpa seni butkul yengmaguncha ta’qib va vahm og‘ushida, u chizib bergen zulmatga g‘arq etilgan yulduzsiz osmon ostida yashashga mustahiq etilganding.*” [Eshonqul N. 4:315] Hujumga o‘tadi bu biz yuqorida ta’kidlagan inson mavjud ekan uning qalbida kechadigan jang emasmi? Surat chizish jarayonini roviy “...*bolalikdan beri haligacha tark etmagan*” deb ta’riflaydi. Illohiy kitoblardan bizga ma’lumki, har bir inson so‘f islam fitratida dunyoga keladi, bola ekan u beg‘ubor va gunohsiz bo‘ladi, ulg‘ayish jarayonida uning qalbini sekin-asta nafs va shayton vasvasalari egallay boshlaydi.

Shu o‘rinda bizga qiziqarli va talqintalab tuyilgan yana bir detalga e’tiboringizni qaratmoqchimiz: “*Shunda senga birdan u sharpa javondagi kitbolar ichiga yashiringanday tuyuldi; ikki-uch kitobni olib varaqlab, bunga shubha qilmading. Kitobda uning izlari qolgan edi. Izquvarlikni bas qilishga to‘g‘ri keldi. Chunki barcha harakatlaring zoya ketgandi. Uni topish uchun har bir kitobni birma-bir varaqlab chiqish kerak edi. Buning esa sirayam iloji yo‘q, bir oy o‘tirib izlasang ham u sharpani baribir topolmasding. U kitobdan kitobga o‘tib yuraverardi. Sen u sharpa bilan bir xonada yashab turishga majbur eding.*” [Eshonqul N. 4:315] Bu yerda yozuvchimiz Nazar Eshonqul biz kitobxonlarga

insonning e’tiqodiga putur yetkazuvchi g‘oya va mafkurlalar bizning ongimizga ayrim kitoblar orqali singdirilayotganini ishora qilmoqchidir. Sharpa va “men” o‘rtasidagi kurash insoniyat mavjud ekan abadiy davom etadigan bir merosdir, unda g‘olib yoki mag‘lub bo‘lish har birimizning e’tiqodimiz darajasini belgilaydi.

Nazar Eshonqulning “Ajr” nomli hikoyasida ham “sharpa” obraziga duch kelamiz: “*O’g’il ixrab-ixrab ketardi. Uning pishnashi demasa hamon vahimali sukunat hukm surardi, faqat atrofda qandaydir sassiz sharpalar aylanib yurar, ular juda ko’p edi, aftidan. Butun dala bo’ylab yugurib yurishar, lekin qadam tovushlari eshitilmas, ba’zan yo’lga yaqinroq bostirib kelishar, so’ng hansirash va pishnashni eshitib orqaga chekinishardi.*”[Eshonqul N. 4:20] bu hikoyadagi sharpalar tiriklik dunyosida qahramon zulm qilgan insonlarning narigi dunyodagi arvochlari ekanligini hikoyani o‘qish davomida tushunish murakkab emas.

“Qur’oni Karim”dan olingen Falaq surasi tahlil qilingan ikki hikoyaning umumiy g‘oyasini ochib, xulosalab beradi: “(Ey, Muhammad,) ayting: “Panoh tilab iltijo qilurman tong Parvardigoriga, yaratgan narsalari yovuzligidan, zulmatga cho‘mgan tun yovuzligidan, tugunchalarga dam uruvchi ayollar yovuzligidan.” (“Falaq surasi, 1-4-oyatlar) Ya’ni hikoyalar tarkibida keltirilgan bizga kichik va oddiy ko‘ringan har bir detalga poetik funksiya yuklanar ekan yuqoridagi asarlarda ham shuning isbotini ko‘rishimiz mumkin. *Qora, tun, olov* detallari biz bilgan Iblisga ishora bo‘lib, xoh G‘arb kishisi bo‘lsin, xoh Sharq kishisi bo‘lsin u hayoti davomida sinovda ekan, Iblis doimiy hujum qilish uchun payt poyleydi, shu jumladan, asar qahramonlari u bilan botinan va zohiran kurashda. Iymon va e’tiqodi kuchli insonni shayton vasvasaga sola olmaydi, u har daqiqa Ilohiy kuch tomonidan himoyada bo‘ladi.

Batafsil tadqiq qilishga uringanimiz uch hikoyaning qiyosiy tahlil va tadqiqini xulosalaymiz:

- I. Xulio Kortasarning “Zulmat egallagan uy” va Nazar Eshonqulning “Sharpa” hikoyalaridagi sharpa metaforik obraz bo‘lsa, Xurshid Do‘stmuhhammadning “Shabada” hikoyasidagi sharpa mistik obrazdir.
- II. “Zulmat egallagan uy” hikoyasida roviy va singlisi Iren uy(Vatan)da paydo bo‘lgan sharpaga qarshi hech bir qarshilik qilmasdan uyni tark etsa, “Sharpa” hikoyasidagi roviy u bilan muntazam kurash olib boradi.
- III. “Zulmat egallagan uy” hikoyasida qahramonlar tunda alahsiraydi ham “Sharpa” hikoyasida esa roviy tunda tush aralash ixrashni boshdan o‘tkazadi bu ikki hikoyadagi umumiy jihatlar.
- IV. “Zulmat egallagan uy” hikoyasida qahramonlar sharpa paydo bo‘lganidan hayron qolishmaydi, o‘yga tolishmaydi. “Shabada” va “Sharpa” hikoyalarining qahramonlari esa uni qayerdan paydo bo‘lganligi yoxud nima ekanligiga doimo

qiziqishadi. Uchala hikoya qahramonlarida ham qo‘rquv kuchli holatdaligini kuzatishimiz mumkin. Quyida “sharpa” obrazining o‘xhash va farqli jihatlarini jadval orqali kuzatishingiz mumkin:

<b>Xususiy atlari:</b>	<b>“Zulmat egallagan uy”</b>	<b>“Shabada”</b>	<b>“Sharpa”</b>
<b>G‘oya:</b>	<i>Noma’lu m qo‘rquv sabab hech bir kurashsiz nazoratni yo‘qotish qo‘lidagi qadrli narsalardan ayrilishga olib keladi.</i>	<i>Oliy haqiqat ning mavjudligi va oilaningga muqaddasligi</i>	<i>Insoniyatning ichki dunyosida va nafs hamda iymon o‘rtasidagi azaliy kurash</i>
<b>Ilk paydo bo‘lishi:</b>	<i>1) stul qulaydi 2) pichir-pichirlar eshitiladi</i>	<i>Suv quygan dek jim-jit uyda allaqaysi eshikning qirs etib yopilganani aniq-tiniq eshitildi.</i>	<i>1) hovur 2) imir-jimirlar</i>
<b>Ko‘rinishi:</b>	<i>Tasvirlan magan</i>	<i>— Qop-qora...</i>	<i>To‘kilib turgan zulmat, ayyor</i>

		<i>sharpa.. . Baland. .. Betini ko ‘rma dim...</i>	
<b>Harakat lari:</b>	<i>Narsalar sinadi Shovqin va bo ‘g ‘iq ovozlar eshitiladi</i>	<i>G‘ayrio datiy holatlar yuz beradi, jumlada n choyna k yorilib ketadi, uyga o ‘t ketadi.</i>	<i>Tinimsiz ta ’qib etadi, hujumga shay. Yolg‘iz paytini kutadi. Tunda ayniqsa kuchayadi</i>

O‘zbek va jahon adabiyotida bunday obrazlar yana o‘nlab uchrashi mumkin, lekin biz birgina maqola orqali uni o‘rganishga harakat qildik.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Internet manbasi: [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) Xurshid Do‘stmuhammad. Shabada (hikoya).
2. Internet manbasi: WordPress.com. “House Taken Over” (“Casa Tomada”) by Julio Cortazar. Translated by Paul Blackburn. – 3 p
3. N.Eshonqul. MENdan “MEN”gacha. – Toshkent: Akademnashr, 2014. – 512 b.
4. N.Eshonqul. Saylanma I (Hikoyalar). – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 512 b.